



Yevropa ittifoqining moliyaviy  
ko'magi bilan ta'minlandi



unicef 

Har bir bola uchun

SURXONDARYO VILOYATIDA INKLYUZIV TA'LIM, IJTIMOYIY XIZMATLAR VA  
HUQUQIY YORDAMDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

UNICEF TOMONIDAN AMALGA OSHIRILAYOTGAN, YEVROPA ITTIFOQI VA  
UNICEF TOMONIDAN MOLIYALASHTIRILGAN LOYIHA



# O'ZBEKISTONDA BOLALARNING HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHILAR

Mazkur nashr Yevropa Ittifoqining moliyaviy ko'magi yordamida tayyorlangan. Uning mazmuniga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va UNICEF mas'uliyatli bo'lib, bu masala bo'yicha Yevropa Ittifoqining nuqtai nazarini aks ettirmasligi mumkin.

## MURAKKAB HUQUQIY TUSHUNCHALARNING SODDA TA'RIFLARI

### Mansabdor shaxs

— davlat tashkilotlarida ba'zi bir masalalarni hal qiladigan, boshqaradigan shaxs.

### Nodavlat notijorat tashkiloti

— bu shunday tashkilotki, unda odamlar va (yoki) tashkilotlar birgalikda ixtiyoriy birlashishadi va o'zlarining oldilariga ma'lum maqsadlarni qo'yib, unga erishishga birgalikda harakat qilishadi. Bunday tashkilotlarning maqsadi pul topish va foyda ko'rish emas, aksincha jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xayriya, madaniy-ma'rifiy, siyosiy, ilmiy va boshqa maqsadlarga erishish.

### Bolalarning huquq va erkinliklari

— O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, shuningdek, xalqaro hujjatlarda kafolatlangan bolalarning huquq va erkinliklari.

### Tarbiya koloniyasi

— voyaga yetmaganlar, ya'ni 18 yoshga to'lmagan bolalar jinoyat (lar) sodir etganlik uchun jinoyat ishlari bo'yicha sud qarori bilan belgilangan jazoni o'tash joyi.

### Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari

— yopiq turdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularda xulq-atvori og'ir 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jinoyat ishlari bo'yicha sud qarori bilan joylashtirilishi mumkin.

### Yetim bola

— otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qarori bilan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

### Ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola

— har qanday sababga ko'ra ota-onasining qaramog'ini yo'qotgan bola;

### Qonuniy vakil

— muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchilar (ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar, vasiylar yoki homiylar).

Bola sifatida sizning huquqlaringizni himoya qiladigan insonlar, aniqrog'i tashkilotlar haqida eshitganmisiz? Agar ular haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasangiz, unda mazkur broshyura siz uchun juda mos keladi.

Qo'lingizdagi broshyura orqali sizni himoya qiluvchi organlar haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'lasiz hamda ular bilan qanday aloqaga chiqish haqida bilib olasiz. Agar siz ushbu qo'llanmadagi atamalarni va so'zlarni tushunmasangiz, ularning ma'nosini ushbu qo'llanmaning boshidagi lug'atdan (tushuntiruvchi lug'at) topishingiz mumkin.

Quyidagi organlar va mexanizmlar bolalarning huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi:

1

**Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)**

2

**Bolalarni himoya qilish shu'balari**

3

**Advokat**

4

**Ichki ishlar organlari**

5

**Prokuror**

6

**Sud**

## Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani)

Davlatimiz bolalarni yanada yaxshiroq himoyalash maqsadida, Bolalar ombudsmani faoliyatini yo'lga qo'ygan.


U mamlakatimizda sizlarni, ya'ni bolalarni himoya qiladigan asosiy insonlardan biridir.



## Bolalar ombudsmani quyidagi vakolatlarga ega:

- bola huquqlari, erkinliklari va manfaatlari buzilgan holatlar haqidagi xabarlarini davlat organlari, mansabdor shaxslar va nodavlat tashkilotlarida ishlayotgan xodimlar bilan birgalikda tekshirish;
- harakatlarida bola huquqlari va erkinliklari buzilganligi aniqlangan shaxslarni javobgarlikka tortish to'g'risida tegishli organlarga iltimosnoma bilan kiradi;
- bolaning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda tiklash maqsadida sud jarayonlarida shaxsan yoki o'z vakili orqali ishtirok etadi.

Agar voyaga yetmagan shaxs (bola) tarbiya koloniyalarida, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalarida yoki boshqa har qanday joyda turgan bo'lsa, Bolalar ombudsmani bola turgan joydagi insonlar hamda atrof-dagilar bolaning huquqlarini buzmayotganligi va unga hech kim zo'ravonlik qilmayotganligini ko'zdan kechiradi.




### AGAR SIZNING HUQUQLARINGIZ BUZILAYOTGAN BO'LSA:

unda Bolalar ombudsmanining

+998 71 200 10 96

raqamli telefoniga qo'ng'iroq qilishingiz  
va amaliy yordam so'rashingiz mumkin.



Har bir tuman (shaharlar)da bolalarni himoya qilish shu'balari bor.



Bolalarni himoya qilish shu'balarning asosiy vazifasi quyidagilardir:

✔ bolalarning (voyaga yetmaganlarning) huquqlarini, erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

✔ yetim bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan, zo'ravonlikka uchragan bolalar huquqlarini himoya qilish va ularga amaliy yordam ko'rsatish;

✔ oilada tarbiyalanayotgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan ajralib qolgan bolalarning yashash sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini nazorat qiladi;

✔ yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan ajralib qolgan bolalarning uy-joyi bor yoki yo'qligini nazorat qiladi;

✔ chet davlatlarda yashayotgan va ota-onasi qaramog'idan ajralib qolgan bolalarni O'zbekistonga qaytarishda qatnashadi;

✔ Vasiy va homiylik bilan bog'liq masalalarda yordam beradi.

**Quyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyatining telefon raqamlari keltirilgan.**

<b>T/r</b>	<b>Hududlar</b>	<b>Telefon raqamlari</b>
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 91 302 77 27 +998 91 390 09 09 +998 61 222 26 64
2	Xorazm viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 94 230 82 22 +998 62 223 01 40 +998 97 790 07 51 +998 62 223 00 72
3	Qashqadaryo viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 91 958 70 07 +998 75 221 15 67 +998 91 224 27 85 +998 75 221 02 08
4	Surxondaryo viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 88 075 70 01
5	Farg'ona viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 91 650 66 60 +998 73 244 27 71 +998 98 276 06 02 +998 73 244 27 71
6	Andijon viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 91 483 88 71 +998 99 786 07 86
7	Toshkent viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 99 858 44 85 +998 90 337 07 97 +998 71 232 80 53
8	Samarqand viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 91 628 19 95 +998 66 230 49 40 +998 94 181 80 81 +998 66 230 42 47
9	Jizzax viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 99 730 83 76 +99872 226 18 33 +99893 304 66 77 +99872 226 18 33
10	Namangan viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 93 675 25 52 +998 69 227 12 66 +998 93 914 79 76 +998 69 227 12 66
11	Navoiy viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 99 556 35 55 +998 79 229 62 63
12	Buxoro viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 93 474 88 58 +998 97 728 68 28 +998 65 223 45 42
13	Toshkent shahar hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 90 323 71 09 +998 71 210 02 77
12	Sirdaryo viloyati hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati	+998 98 277 14 44 +998 99 440 14 44 +998 67 225 11 73



Advokat bu huquqlari buzilgan yoki huquq masalasida nizolashayotgan odamlarga qonunlarni tushunishga, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish (yozish)ga va ularni sudda, boshqa organ va tashkilotlarda himoya qilishga yordam beradigan himoyachidir.



Advokat, shuningdek, bolalarni ham himoya qiladi.

Jinoyat qurboni bo'lgan yoki jinoyat qilganlikda ayblangan bolalarni, yoki huquqlari buzilgan va himoyaga muhtoj har qanday bolani jinoyat va fuqarolik sudlarida advokat himoya qiladi, ularning tarafini oladi hamda huquqlarini himoya qiladi. Agar bola qonunni buzgan bo'lsa yoki huquqlarini himoya qilish zarur bo'lsa, u yoki ota-onasi advokat xizmati uchun haq to'lay olmasa, unga davlat tomonidan advokat beriladi.

Voyaga yetmagan shaxsning (bolalarning) jinoyatlari to'g'risidagi ishlarda suddan oldin ham va sud bo'layotgan paytda ham, ya'ni barcha bosqichlarda himoyachi (advokat)ning ishtirok etishi shart. Bolaning va uning qonuniy vakillarining himoyachi (advokat)dan voz kechishi mumkin emas.

Agar bola sudda yordamga muhtoj bo'lsa, bola ham, ota-ona ham advokatdan yordam so'rashi mumkin.



Sizni tashvishga soladigan yoki xafa qiladigan har qanday narsa haqida advokatingizga ochiq aytishga harakat qiling. Jumladan, nima haqida gapirish qiyin va og'riqli bo'lsa, o'shalarni tortinmasdan ayting. Shundagina advokat sizga yordam berishi va sizni himoya qila olishi mumkin.

Ichki ishlar organlari ham sizning huquqlaringizni himoya qilishda yordam beruvchi asosiy organlardan biridir.

Ichki ishlar xodimi bu har bir mahallada odamlarning xavfsiz hayot kechirishini ta'minlaydigan shaxsdir.

Shuningdek, ichki ishlar xodimi odamlar gavjum bo'lgan joylarda tartibni saqlaydi, huquqbuzarliklarning oldini oladi, jinoyat qilib, qochib yurgan shaxslarni ushlaydi, yo'l qoidalarini buzgan haydovchilar hamda piyodalarni aniqlaydi.

Ichki ishlar xodimlari barcha bolalarni tajovuzlardan, zo'ravonliklardan himoya qiladi.

Agar kimdir sizga zo'ravonlik qilsa, qo'rqitsa, shikastlasa, narsalaringizni o'g'irlasa ichki ishlar xodimlariga yordam uchun qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.



**ICHKI ISHLAR ORGANI**  
O'zbekistonning barcha  
tumanlarida joylashgan



Agar sizga zudlik bilan ichki ishlar organi xodimining yordami kerak bo'lsa, qisqa raqamli **102 ga** qo'ng'iroq qilishingiz kerak. Nafaqat yoshi kattalar, balki bolalar ham ichki ishlar organlariga o'zlari mustaqil ravishda bemaol o'z huquqlarini himoya qilishni so'rab murojaat qilishlari mumkin.



BU INSON PROKURATURADA  
ISHLAYDIGAN PROKUROR.  
PROKURORLAR HAM BOLALARNING  
HUQUQLARINI HIMOYA QILADI.



Prokuror odamlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Bolalar, ularning ota-onalari va boshqa odamlar prokurorga murojaat qilib, ularning buzilgan huquqlarini tiklashda va himoya qilishda yordam berishlarini so'rashlari mumkin. Prokuror sudda ayboblarni qo'llab-quvvatlaydi.

Bolalar prokuraturaga bevosita yordam  
so'rab murojaat qilishlari mumkin.

Bolalar prokuraturaga bemaol o'zlari murojaat qilishlari mumkin. Ularning murojaatlari prokuratura xodimlari tomonidan, albatta, ko'rib chiqilishi lozim.



Voyaga yetmagan shaxslar (bolalar) o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga mustaqil ravishda murojaat berishga haqli hisoblanadilar. Bolalarni hali to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli, ya'ni 18 yoshga yetmaganligi sababli murojaatlarini ko'rib chiqmaslikka yo'l qo'yilmaydi.



O'zbekistonning har bir tumanida prokuratura organlari joylashgan bo'lib, siz o'zingizga kerakli prokuratura haqida

1007 QISQA RAQAMLI ISHONCH TELEFONIGA qo'ng'iroq qilib so'rab olishingiz mumkin.

- bu odamlar o'zlarining kelishmovchiliklari yoki muammolarini muhokama qiladigan va ularni hal qilishga harakat qiladigan yoki kimdir qonunni buzganligi haqida qaror qabul qiladigan joy.

### O'ZBEKISTONDA QUYIDAGI SUDLAR BOR:

O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyaviy sudi;

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi;

harbiy sudlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
sudi, viloyatlar va Toshkent  
shahar sudlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
ma'muriy sudi, viloyatlar va  
Toshkent shahar ma'muriy sudlari;

fuqarolik ishlari bo'yicha  
tumanlararo, tuman, shahar  
sudlari;


jinoiyat ishlari bo'yicha tuman,  
shahar sudlari;

tumanlararo, tuman,  
shahar iqtisodiy sudlari;

tumanlararo ma'muriy  
sudlar.

Yuqorida nomlari keltirilgan sudlar o'zlariga tegishli turli ishlar ni ko'radi. Misol uchun, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar jinoyat qilgan va huquqni buzgan shaxslarning ishlari bo'yicha qaror qabul qiladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda esa bolaning mehnat qilish, ta'lim olish, ijtimoiy himoyasi, ota-ona qaramog'i va himoyasida bo'lish haqidagi ishlari ko'rib hal etadi. Bolaning buzilgan huquqlari tiklanadi va nizoli masalalar hal etiladi.



Sudda sudyalari bor, ular sudda qatnashayotgan odamlarni tinglaydilar va ularga kelishuvga kelishga yordam beradilar, biron bir muammo bo'yicha qaror qabul qiladilar, shuningdek, qonunni buzganlarni qanday jazolashni hal qiladilar.



Sudya aytgan gaplarga hamma bo'ysunishga majburdir.

Kattalar turli sabablarga ko'ra sudga murojaat qilishlari mumkin. Ba'zan bolalar ham sudga murojaat qilishlari mumkin. Shaxs sudga faqat 18 yoshga to'lgandan keyin, ya'ni voyaga yetganida murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki,

**BOLALAR 14 YOSHDAN BOSHLAB BUZILGAN HUQUQLARINI  
TIKLASHNI SO'RAB QUYIDAGI HOLLARDA FUQAROLIK ISHLARI  
BO'YICHA SUDGA MUSTAQIL MUROJAAT QILISHLARI MUMKIN:**

ota-ona (ulardan biri) bolani tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki yetarli darajada bajarmaganda;

ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda.

Bundan tashqari, prokuror yoki bolalarni himoya qilish shu'balari bolaning manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilishi mumkin.

Odatda, sudlar har bir tumanda joylashgan bo'ladi. Ammo, ba'zida ikkita yoki uchta tuman uchun bitta sud bo'lishi mumkin.

Misol uchun, fuqarolik ishlari bo'yicha respublika darajasida (Oliy sudning bir qismi), viloyat darajasida va tumanlararo, tuman, shahar sudlari bor.

Agar qaysi sudga murojaat qilishni bilmayotgan bo'lsangiz, unda Oliy sudning quyidagi telefon raqamlariga qo'ng'iroq qilib so'rashingiz mumkin:



+998 71 207 97 37

+998 71 239 02 74

Bundan tashqari, ota-onangiz yoki advokatdan ham so'rab sizga kerakli sudning joylashgan joyi va alohida telefon raqamlarini bilib olishingiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining — [www.sud.uz](http://www.sud.uz) — veb sayti mavjud bo'lib, unda joylashgan "Sud"lar bo'limiga kirgan holda, sizning hududingizda joylashgan sudlarning manzili va aloqa raqamlarini topishingiz mumkin.







Yevropa Ittifoqi zamonaviy nou-xaular, resurslar va taqdirlarini bosqichma-bosqich birlashtirishga qaror qilgan 27 a'zo davlatdan iborat. 60 yil davomida, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamjihatlikda o'z chegaralarini kengaytirib keldilar; Ittifoqqa a'zo davlatlar madaniy xilma-xillik, bag'rikenglik va shaxs erkinligini kafolatlagan holda barqarorlik, demokratiya va barqaror rivojlanish hududini yaratdilar. Yevropa Ittifoqi o'z yutuqlari va qadriyatlarini ittifoqdan tashqarida bo'lgan mamlakatlar va xalqlar bilan baham ko'rish tamoyillarini ilgari suradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasida jamiyat va davlat qurilishi sohasida norma ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida yagona davlat siyosatini izchil amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasi adliya organlari tuzildi. Adliya vazirligi Vazirlar Mahkamasiga, faoliyatining ayrim masalalari bo'yicha esa bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobot beradi.

UNICEF tomonidan amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va harakatlar har bir bolaning huquqlari va farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Biz hamkorlarimiz bilan o'z maqsadlarimizni amalga oshirishda birgalikda 190 mamlakat va hududlarda faoliyat olib boramiz. Bunda biz, asosiy e'tiborimizni dunyoning barcha chekkalaridagi bolalarning manfaati uchun, eng himoyasiz va chetlatilgan bolalarga qaratishga intilamiz. UNICEF bolalar huquqlarini hurmat qiladigan dunyoga o'z g'oyalari amalda tatbiq etish uchun O'zbekistondagi davlat institutlari, fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va ilmiy muassasalar bilan, shuningdek, xalqaro hamkorlar bilan yaqin hamkorlikda ish olib boradi.

### **Yevropa Ittifoqining O'zbekiston Respublikasidagi delegatsiyasi**

107B Amir Temur ko'chasi, Xalqaro biznes markazi 100 084 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 78 120 16 01 /02 /03 /04

Email: [delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu](mailto:delegation-uzbekistan@eeas.europa.eu)

Veb-sayt: [www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan\\_en](http://www.eeas.europa.eu/delegations/uzbekistan_en)

Facebook: [www.facebook.com/edudeluzb](http://www.facebook.com/edudeluzb)

### **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

O'zbekiston Respublikasi 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko'chasi, 5

Tel: +998 71 207 04 43

Email: [info@adliya.uz](mailto:info@adliya.uz)

Veb-sayt: [www.adliya.uz](http://www.adliya.uz)

### **BMTning O'zbekistondagi Bolalar jamg'armasi**

Poytaxt biznes markazi 16 Sharof Rashidov ko'chasi 100 029 Toshkent, O'zbekiston

Tel: +998 71 233 95 12

Email: [tashkent@unicef.org](mailto:tashkent@unicef.org)

Veb-sayt: <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

Facebook: <https://www.facebook.com/unicefuzb/>